

KO‘HITANGTOG‘ QISHLOQLARI AHOLISINING XO‘JALIK FAOLIYATI BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT VA MAROSIMLARI

Xaydarov Odil Ergashevich

hajdarovodil188@gmail.com

+998 91 582 30 29

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ko‘hitangtog‘ tog‘li hududida yashovchi aholining dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va ovchilik bilan bog‘liq urf-odat hamda marosimlari etnografik va tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalqning tabiatga munosabati, hosildorlikni ta‘minlash, yomg‘ir chaqirish, ofatlardan saqlanish, kasb egalari faoliyatiga ehtirom ko‘rsatish bilan bog‘liq udumlar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, marosimlarning qadimgi e‘tiqodlar bilan bog‘liqligi va ularning zamonaviy davrgacha yetib kelish jarayoni ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ko‘hitangtog‘, marosim, urf-odat, dehqonchilik, chorvachilik, suv kultlari, xalq e‘tiqodlari, etnografiya.

ABSTRACT

This article examines the ethnographic and historical dimensions of customs and rituals associated with agriculture, animal husbandry, handicrafts, and hunting among the population of the Ko‘hitangtog‘ mountainous region. Particular attention is paid to traditions reflecting people’s relationship with nature, practices aimed at ensuring productivity, invoking rain, protecting against natural disasters, and showing respect for the activities of various professional groups. The study also highlights the connection of these rituals with ancient beliefs and traces the process of their preservation and transformation up to the present day.

Keywords: Ko‘hitangtog‘, rituals, customs, agriculture, animal husbandry, water cults, folk beliefs, ethnography.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются этнографические и исторические особенности обычаев и ритуалов, связанных с земледелием, животноводством, ремесленничеством и охотой у населения горного региона Кухитанга. Особое внимание уделяется традициям, отражающим отношение человека к природе, обеспечению урожайности, практикам вызова дождя, защите от стихийных бедствий, а также проявлению уважения к деятельности представителей различных профессий. Показана связь данных ритуалов с древними верованиями и процесс их трансформации и сохранения до современности.

Ключевые слова: Кухитанг, ритуалы, обычаи, земледелие, животноводство, водные культы, народные верования, этнография.

KIRISH (INTRODUCTION)

Surxon-Sherobod vohasi hududlarida shakllangan an'anaviy turmush tarzi aholining tabiiy muhit bilan o'zaro munosabatlari asosida yuzaga kelgan. Ayniqsa, tog'li hududlarda yashovchi aholi hayoti tabiat sharoitlariga kuchli darajada bog'liq bo'lib, bu holat ularning xo'jalik faoliyati, dunyoqarashi va marosimlar tizimida yaqqol aks etadi. Ko'hitangtog' qishloqlarida istiqomat qiluvchi aholining urf-odat va an'analari asrlar davomida shakllanib, jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy hamda xo'jalik ehtiyojlariga xizmat qilib kelgan.

Mazkur maqolada Ko'hitangtog' hududida dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va ovchilik bilan bog'liq marosimlarning kelib chiqishi, mazmun-mohiyati hamda ularning xalq turmushidagi o'rni ilmiy-etnografik asosda tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURE REVIEW)

Ushbu maqolani tayyorlashda etnograflardan S. Tursunov, T. Pardayev, I. Umarov, N. Tursunov, B. Murtazoyev, H. Rahmonov, E. Xudoyberdiyev, A. Ashirov, B. Xalmuratov, M. Raximov asarlarida bayon etilgan nazariy qoidalar va uslubiy tavsiyalarga tayanildi. Maqolaning manbalari sifatida o'z tabiati va ahamiyatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratib o'rganildi.

-Sherobod,

-Boysun,

-Angordagi ekspeditsiyalar davomida to'plangan dala etnografik materiallari. Shu maqsadda tadqiqotning hududi (tuman va joy) oldindan aniqlandi va mavjud adabiyotlar o'rganildi.

Shu bilan birga, aholining etnik tarkibi va saqlanish darajasi hisobga olingan. Tanlangan hudud aholisining iqtisodiy faoliyati va madaniyatidagi an'analari tahlil etildi.

NATIJALAR (RESULTS)

Mazkur tadqiqot natijalari Ko'hitangtog' qishloqlari aholisi xo'jalik faoliyati bilan bog'liq urf-odat va marosimlarining ijtimoiy, ma'naviy va amaliy jihatlarini tizimli ravishda ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Dehqonchilik bilan bog'liq marosimlar:

- "Darveshona" va "Bobodehqon" kabi marosimlar hosildorlikni ta'minlash va tabiat kuchlaridan himoyalash maqsadida o'tkazilgan.

- Marosimlar aholining jamoaviy birdamligini mustahkamlashga xizmat qilgan, urf-odatlar orqali tabiatga hurmat va ehtiyotkorlik hissi shakllangan.

2. Chorvachilik marosimlari:

- Yaylovga chiqish oldidan o'tkaziladigan olov marosimi, molni balo-qazolardan saqlashga qaratilgan.

- Chorvadorlar orasida "Cho'pon tayog'i" va Pirlarga e'tibor marosimlarning ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatini oshirgan.

3. Hunarmandchilik va kasbiy marosimlar:

- Hunarmandchilik kasblarining har biri o'z homiysiga ega bo'lib, bu an'analar kasb egalarining ishini e'zozlagan.

- Temirchilar, kulollar va tikuvchilar jamiyatda alohida hurmatga ega bo'lgan.

4. Ovchilik marosimlari:

- Ovga chiqishdan oldin duo o'qish va risola olish amaliyoti ovchilar faoliyatini tartibga solgan.

- Ovchilarning piri sifatida Pahlavon Ahmad Zamshiy e'zozlangan va minginchi o'lja bilan bog'liq e'tiqodlar kuzatilgan.

5. Tabiat bilan uyg'un yashash:

- Xalq urf-odatlari va marosimlari tabiat bilan uyg'un munosabatni ta'minlashga qaratilgan.

- Yomg'ir chaqirish marosimlari, qurg'oqchilikdan himoyalaniish amaliyotlari va fasllarga oid e'tiqodlar qadimgi suv kultlari va tabiatni hurmat qilish tamoyillari bilan bog'langan.

6. Ijtimoiy va ma'naviy ahamiyat:

- Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, urf-odat va marosimlar aholining ma'naviy barqarorligini, jamiyat ichidagi birdamlikni va kasb-hunar faoliyatining davomiyligini ta'minlashga xizmat qilgan.

- Marosimlar zamonaviy davrgacha yetib kelgan va milliy madaniy meros sifatida ahamiyatini saqlab qolgan.

Tadqiqot natijalari Ko'hitangtog' qishloqlari aholisining xo'jalik faoliyati bilan bog'liq urf-odat va marosimlarining nafaqat amaliy, balki ma'naviy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini tasdiqlaydi. Ushbu marosimlar xalqning tabiatga hurmati, hosildorlikni ta'minlash va jamiyat barqarorligini ta'minlashga qaratilganligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Ko'hitangtog' qishloqlari aholisi urf-odatlari asrlar davomida rivojlanib, insonlarning tabiat bilan munosabati hamda yashash tarzini ta'minlash jarayonlari

bilan chambarchas bog‘langan. Tog‘ qishloqlari aholisi o‘z xo‘jalik ishlari davomida turli marosimlarni o‘tkazib kelgan. Bu marosimlarni to‘rtta asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Dehqonchilik marosimlari
2. Chorvachilik marosimlari
3. Hunarmandchilik marosimlari
4. Ovchilik marosimlari

XX asr boshlarida, hatto Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda ham barcha kasb egalari, jumladan ovchilar ham, albatta «risola» olishlari shart bo‘lgan. Risola yirik ulamolar tomonidan bitta varaqqa yozilib, unda kasb egasining bajarishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘rsatilgan. Xalq ishonishicha, shunday qilinsa, ishlarini muammosiz bajara oladi va kunini osoyishta o‘tkazishi mumkin. Ushbu risolalar tumor kabi olib yurilgan, shuning uchun xalq orasida «xuddi risoladagidek bo‘lsin» degan naql ham yuzaga kelgan.

Tog‘ qishloqlarida dehqonchilik bilan bog‘liq marosimlar keng tarqalgan bo‘lib, ular yilning turli fasllarida o‘tkazilgan. Xususan, har yili bir marta – Yilboshi (Navro‘z) oldidan aholi tomonidan «darveshona» o‘tkazilgan. Darveshona – Olloh yo‘lida o‘tkaziladigan sadaqadir. Unda odamlar yil yaxshi kelishi, turli xil ofatlardan saqlashni ko‘zlashgan. Marosimni o‘tkazish uchun odamlardan pul yig‘ilgan. Boy kishilar qo‘y berganlar. Tegirmonda bug‘doy tortib, yorma qilib qaynatishgan. Qo‘y so‘yib dumbasiga go‘shni qovurishgan. Har bir odamga bir kosadan yorma, kosaning ichiga pishirilgan go‘sh solib berishgan. Odamlar «darveshona – tishga davo» deb ovqatni yeyishgan. Yetim-yesirlar bu tadbirda to‘liq jalb etilgan va ularga ehson ajratilgan. Darveshonada mulla yoki eshon kelib, elga, yurtga omonlik, tinchlikni so‘rab duo qilishgan¹.

Qorabog‘ qishloq aholisi darveshonani «yorma» deb ham atagan; so‘yilgan hayvonning qoni buloqlarga tomizilib, bu bilan buloqlardan doimiy suv chiqib turishi maqsad qilingan.

Tog‘lik dehqonlar yerni ekinga tayyorlab, urug‘ni ivitib qadashdan bir kun oldin Bobodehqon marosimini o‘tkazganlar. Ushbu marosimda qon chiqarilib (imkoniyatiga qarab, tovuqdan to‘qo‘ygacha), Olloh yo‘liga sadaqa qilganlar. Ulamolar Qur‘on o‘qib, xuddi darveshonada bo‘lgani singari Ollohu taolodan hosil barakali bo‘lsin deb duo qilganlar.

Bobo Dehqon timsoli boshqa xalqlarda ham mavjud: Qoraqalpoqlarda – Diyxan Bobo, turkmanlarda – Baba Dayxan, tojiklarda – Boboi Dehqon, Xo‘ja dehqon, Xo‘ja

¹ Файзуллаева М. Ўзбек миллий таомлари ва тановул маданияти. –Тошкент: Tafakkur avlodi, 2021. –Б.295.

Abdulla dehqon deb atalgan². Ba'zi tadqiqotchilar uni zoroastrizmdagi Mitra bilan bog'laydi. Bunda ularning har ikkisi oq kiyim kiygan keksha kishi qiyofasida tasvirlanishi, qolaversa, dehqonlarga homiylik qilganligi nazarda tutiladi³.

Hududda bog'bonlar piri Hazrati Nuh (alayhissalom), suvchilar piri Hazrati Sulaymon (alayhissalom) hisoblanadi. Hazrati Nuh ekin qadashdan keyin yerga birinchi novda qadagani uchun ulug'langan.

Tog' qishloqlari aholisi dehqonchilik faoliyati davomida ob-havo va tabiiy kuchlarga katta e'tibor bergan. Shu munosabat bilan yilning maxsus kunlari va davrlari xalq orasida turli udumlar va e'tiqodlar bilan bog'langan. Masalan, 20 fevraldan 21 martgacha bo'lgan davrning dastlabki 15 kuni «Hut» deb atalgan. Xalq orasida shunday deyilgan: «yaxshi kelsa – hut, kadi-kadi sut, yomon kelsa – hut soylar to'la put». Bu davr ob-havo holatining hosil va chorva uchun ahamiyatini aks ettiradi.

Hutdan keyin «Ajuzmomo» davri boshlanib, 6 kun davom etadi. Xalq ta'limotida Ajuzmomo qishning egasi sifatida e'tirof etilgan. Afsona va rivoyatlarga ko'ra, Ajuzmomo odamlarni muqarrar o'limdan saqlab qolgan va ularni yaxshilikka yetaklagan. Agar qahri kelgan bo'lsa, odamlar va mol-mulk muzlash xavfi ostida bo'lgan. Shu sababli, aholining sovuqdan saqlanish maqsadida ehsonlar chiqarishi ham kuzatilgan.

Ajuzmomo davridan so'ng «Axman» va «Daxman» davrlari kelib, har biri uch kun davom etadi. Ularning tugashi bilan «Obirahmat» davri boshlanadi, u ham uch kun davom etadi. Keyin «Qurbonrahmat» davri kelib, ikki kun davom etadi. Nihoyat, «Nahfi Navro'z» boshlanib, bir kun davom etadi va shundan so'ng qish fasli yakunlanadi.

Shu tariqa, tog' qishloqlari aholisi yilning ushbu davrlarini kuzatib, ob-havo hodisalariga mos ravishda dehqonchilik va hayvonlarga g'amxo'rlik qilish udumlarini shakllantirgan. Bu udumlar aholi hayotida ob-havo bashoratlari, diniy va madaniy e'tiqodlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Tog' qishloqlarida dehqonchilik bilan bog'liq marosimlar aholining ob-havo va tabiiy resurslarga bo'lgan e'tiborini aks ettiradi. Qur'qochilik davrida yomg'ir chaqirish marosimlari keng tarqalgan bo'lib, Ko'hitangto'g' qishloqlarida bu marosim «Suv sulton xotin» yoki «Suz xotin», laqaylarda esa «Sus xotin» deb atalgan. Marosimning dehqonlar va bog'bonlar tomonidan o'tkaziladigan shakli esa «Suz xotin» nomi bilan tanilgan.

² Рахимов М.Р. Земледелие таджиков бассейна р. Хингоу в дореволюционный период. –Сталинабад, 1957. –С. 181-183; Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. –Ташкент, 1957. –С. 12.

³ Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. –B. 69.

Marosimda kattagina yog‘ochdan qo‘g‘irchoq tayyorlanib, xo‘roz so‘yib, sadaqa chiqarilgan. Qo‘g‘irchoq o‘choq boshiga tik holatda qo‘yilgan va tutun zarar yetkazmasligi uchun qozon atrofida bir necha metr narida ushlangan. Dasturxonga ovqat tortilganda qo‘g‘irchoq ham dasturxon boshiga olib kelinadi. Ovqatga duo o‘qilgach, barcha qo‘g‘irchoqni o‘rtaga olib o‘ynatadi va atrofidan aylangan holda marosim qo‘shig‘ini kuylashadi. Marosim tugagach, qo‘g‘irchoq maxsus uycha ichiga joylashtirilgan. Bu amaliyot, xalq tushunchasiga ko‘ra, suv bilan bog‘liq qadimiy kult bilan bog‘liq bo‘lgan.

Yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq marosim raqslari Ko‘hitangtog‘ qishloqlarida XX asr o‘rtalariga qadar mavjud bo‘lgan. Mart oyi boshlari, ayniqsa, Navro‘z vaqtida bir guruh ayollar aylana hosil qilib doira chalishgan va dehqonchilikka aloqador turli marosimlarni amalga oshirishgan. Doira sadolari ostida raqsga tushayotgan ayollar mehnat bilan bog‘liq turli harakatlar va yomg‘ir yog‘ish jarayonini aks ettirishlari shart edi. Doira bilan ijro etiladigan ushbu marosim turi «badash» tarkibida bo‘lgan⁴.

Odatda yomg‘ir chaqirish marosimi fevraldan, ya‘ni kichik chilla tugab, hut kirishidan to aprelga qadar bo‘lgan vaqtlarda o‘tkazilgan. Marosim o‘tishi bilan yomg‘ir yog‘a boshlagach, dehqonlar yer haydab, bug‘doy ekayotgan vaqtda bir qo‘lida o‘sha qo‘g‘irchoq, bir qo‘lida bug‘doy bo‘lgan. Yerga urug‘ sepayotgan vaqtda marosim qo‘shig‘ini kuylashgan⁵. «Suz xotin» marosimi yakunida qo‘g‘irchoq kuydirilgan yoki eski quduqqa tashlangan⁶.

Boshqa hududlarda ham yomg‘ir chaqirishning o‘ziga xos usullari mavjud bo‘lgan. Masalan, Boysun tog‘ining g‘arbidagi Machay qishlog‘ida «kal bog‘lash» amaliyoti qo‘llanilgan: uzun ip orqali qishloqdagi kallarning ismini aytib, tugunlar bog‘langan va nam joyga ko‘milgan. Suv ko‘payganda, tugunlar olinib, o‘choq tagiga qo‘milgan.

Suv yetishmovchiligi va boshqa tabiiy ofatlar paytida Kampirtepa qishlog‘ida Boshbuloqotaga borib, qo‘y so‘yib, ehson berilgan. Shu bilan birga, E‘ranarbobo ziyoratgohida mol so‘yib ehson qilish amaliyoti amalga oshirilgan; bu amaliyot oyiga kamida bir marta takrorlangan.

Dehqonchilik marosimlarining boshqa shakli – bug‘doyni o‘rib, yanchishdan oldin mol so‘yib, xirmon boshida ehson berishdir. Agarda bug‘doyni somondan ajratayotganda shamol bo‘lmasa, yana bir marosim – «Yo Haydar» o‘tkaziladi. Bug‘doy yanchilganidan so‘ng xirmondan bir g‘alvir donni to‘rvaga solib qishloqning ulamosi yoki kambag‘aliga olib borishgan. Har bir xirmondan bir

⁴ Турсунов С., Пардаев Т., Турсунова Н., Муртазоев Б. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. Тошкент, 2015. –Б. 236.

⁵ Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatak qishlog‘i, 2022 yil.

⁶ Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р., Турсунов А.С., Тоғаева М.Р. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданият тарихи. –Тошкент: Мухаррир, 2012. –Б. 35.

g'alvirdan bug'doy olingan. Bu sadaqa «haqula» deb ataladi⁷. Xatak qishlog'ida «kafsan» deyilgan⁸. Agar shunday qilinsa, bug'doy halol bo'ladi deb hisoblashgan. Ulamo bug'doyni olib Bobodehqon haqiga duo o'qigan.

Aholi, hirmon yig'iladigan joylarni va bedazorlarni e'zozlagan, u yerga tom solmagan va bedapoyada janoza o'qimagan. Bunda hosildan baraka qochadi deb irim qilishgan.

Tog' qishloqlarida chorvachilik faoliyati ham o'ziga xos marosimlar va udumlar bilan bog'langan. Chorvadorlar uchun qurg'oqchilik, bo'rilar hujumi, qaroqchilar, sel, hayvonlar orasidagi yuqumli kasalliklar chorvadorlar uchun haqiqiy ofat hisoblangan. Chorvani himoya qilish maqsadida cho'ponlar miltiq, pichoq va qamchi bilan harakat qilgan, ularning yonida maxsus o'rgatilgan bo'ribosar itlari bo'lgan. Agar it bo'rini bosa olgan bo'lsa, so'yilgan qo'yning quyruq qismi unga berilgan, chunki bo'ri bilan olishishda itning tish va tirnoqlari bo'shashishi mumkin va uning jismoniy kuchini tiklash maqsadida shunday amaliyot o'tkazilgan.

Cho'ponlarning yordamchilari – cho'liqlar bo'lib, har 3–4 ta cho'liqqa boshliq «arkar» deb atalgan. Arkarlikka tayinlashda maxsus sinov o'tkazilgan. Unga ko'ra, arpa yoki bug'doy unidan ikkita ko'mma pishiriladi. Ulardan biri cho'liqqa, ikkinchisi itga berilgan. Agar cho'liq itdan birinchi ko'mmani yesa, arkarlikka tayinlangan, agar yeyolmasa yana oldingidek cho'liqligicha qolavergan⁹.

Mart oyining oxirlarida chorvadorlar molni yozgi yaylovga chiqarish oldidan ko'chaning ikki chetida hashakka isiriq qo'shib o'lov yoqishgan, bu amaliyot molni har qanday ofatlardan himoya qilishi tushunilgan.

Mabodo chorvaga qiron kela boshlasa, cho'ponlar o'z mollarini Xo'janqon qishlog'idagi Xo'janqon ota, Kampirtepadagi Xo'jaabdushota va Qizilolmadagi Cho'ptashar, Xomkondagi Oxurliota ziyoratgohlarida cho'pon tayog'ini tashlab, uch marta mollarini aylantirganlar. So'ngra Olloh yo'liga bitta mol so'yib sadaqa chiqarishgan. Ba'zan momolar uchta xamirni pishirib, molimiz ko'paysin deb bola-chaqasi bilan bo'lib yeyishgan¹⁰. Maydaroq qo'y kasal bo'lsa Xo'jaulkanga borib sadaqa berib o'qitib kelishgan. Ziyoratgohlarning ahamiyati haqida quyidagi xalq naqli saqlanib qolgan: Mol tilasang Xo'jaabdush, bosh tilasang Xo'janqon¹¹.

Cho'pon tayog'i udumlarda muqaddas hisoblangan. U irg'ay, zarang va tug'dona daraxtlaridan tayyorlangan bo'lib, qattiq, mustahkamlik va chidamlilik ramzi sifatida qadrlangan. Chorvadorning o'z pirlari ham bo'lgan: Zangiota – qoramollar piri, Cho'po'nota – mayda mollar piri, Qambarota – ot va chopag'onlar

⁷ Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Kampirtepa qishlog'i, 2022 yil.

⁸ Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatak qishlog'i, 2022 yil.

⁹ Dala yozuvlari, Boysun tumani, Sho'rob qishlog'i, 2022 yil.

¹⁰ Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xo'janqon, Kampirtepa, Qizilolma qishloqlari, 2022 yil.

¹¹ Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Kampirtepa qishlog'i, 2022 yil.

piri, Vosil Qora – tuya piri, pillaqurti boqadiganlar esa Hazrati Ayub (alayhissalom)ni piri deb hisoblashgan. Chorvani saqlash va baraka so‘rab ko‘pincha Cho‘po‘nota va Zangibobo nomiga mol so‘yib sadaqa berilgan¹².

Tog‘ qishloqlarida hunarmandlar ham o‘ziga xos udumlarga ega bo‘lgan. Hunarmandlar ishini halol bajarishi shart bo‘lgan. Shuningdek, hunarmanddan biror buyum sotib olganda, xaridor usta roziligini olish majburiyatida bo‘lgan; buyumni olgandan so‘ng «ustaga rozi bo‘ling» deb aytilgan. Bu amaliyot hunarmandning mehnatiga hurmat va ishning barokati uchun zarur hisoblangan.

Shunday qilib, chorvachilik va hunarmandchilik marosimlari tog‘ qishloqlarida aholining diniy, madaniy va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ular baraka, himoya va mehnat tartibini ta‘minlashda muhim rol o‘ynagan.

Tog‘ qishloqlarida hunarmandchilikning har bir tarmog‘i o‘ziga xos pirlarga ega bo‘lgan. Aholining e‘tiqodiga ko‘ra, bu pirlar ma‘lum kasbni birinchi bo‘lib boshlagan va hunarmandlarga o‘rnak bo‘lgan. Masalan: tegirmonchilar Hazrati Jabroilni, o‘rmakchilar va bo‘zchilar Hazrati Shishnovulni (hazrati Shis alayhissalom), temirchilar Hazrati Dovudni, tikuvchilar Hazrati Idrisni, quruvchilar Hazrati Ibrohimni, qassoblar Jomard boboni, kashtachilar va bezakchilar Bahouddin Naqshbandiy, juvozchilar Xo‘ja Ro‘shnoyini¹³, kulollar Hazrati Mirkulol otani (Farg‘ona vodiysida Mehrikulol¹⁴) o‘zlariga pir deb bilgan.

Hunarmandlar har yili Alloh yo‘liga biron jonliq so‘yib, Qur‘on o‘qish marosimini o‘tkazgan. Ushbu marosimdan hosil bo‘lgan savob va samarat avval aziz payg‘ambarlar va avliyolarga, keyin esa kasb pirlariga bag‘ishlangan.

Tandirni buzishdan oldin, albatta, yangi tandir olib kelish lozim edi. Undan keyingina tandirni sindirishi mumkin bo‘lgan. Agar shunday qilinmasa oilaga zarar keladi deb o‘ylashgan. Tandirni buzish davlatni buzish bilan barobar deb hisoblangan. Aytishlaricha, tandirning ichida kulolning ruhi bo‘lar ekan. Agar tandiri buzilsa, u chumoli shakliga kirib, *oh meni yalang‘och haydadi* deb, eshikning bo‘sag‘asi orasiga kirib yig‘lar ekan. Shu sabab, oldin yangi tandirni olib kelib, uch kundan keyin o‘rnatishgan¹⁵.

Hunarmandlar orasida, ayniqsa, temirchilarning obro‘si yuqori bo‘lgan. Temirchi ish boshlashdan oldin yoshi katta va obro‘li ustadan duo olgan. Ularning uyiga hurmat bilan munosabat bildirilgan; agar temirchining uyiga zarar yetkazilsa, avlodlariga qarg‘ish tegadi deb hisoblangan.

¹² Турсунов С.Н., ва бошқалар. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданият тарихи. –Б. 20–21

¹³ Турсунов С., ва бошқалар. Ўзбекистонда топонимик номлар ва уларнинг тарихи. –Б.220; Умаров И., Раҳмонов Х., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар. –Б. 196.

¹⁴ Халмуратов Б.Р. Тандир-ўчоқ ва у билан боғлиқ кулътлар тўғрисида // «Ўтмишга назар» журнали, -Тошкент, 2021 йил, 4-жилд, 11-сон. –С. 95.

¹⁵ Dala yozuvlari, Angor tuman markazi, 2021 yil.

Shu tariqa, tog‘ qishloqlarida hunarmandchilik marosimlari va kasb pirlariga bo‘lgan hurmat nafaqat diniy, balki ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ham aks ettirgan. Ular hunarmandlarning mehnati va obro‘cini himoya qilish, shuningdek, oila va kasb barakasini saqlashda muhim rol o‘ynagan.

Tog‘ qishloqlarida ovchilik o‘ziga xos marosimlar va udumlar bilan bog‘langan. Ovchilar, mahalliy an‘anaga ko‘ra, «mergan» deb atalgan. Merganlikka kirishishdan oldin qishloqning eng bilimli imomidan risola olish majburiy bo‘lgan; shunda ovlangan hayvon halol hisoblangan. Ov oxirida otilgan o‘lja mergan va unga yordam bergan shaxslar o‘rtasida teng taqsimlangan.

Qishloqlar o‘rtasida ov qilish qoidalari ham farq qilgan. Masalan, Hatak guruhiga kiruvchi qishloqlarda jayra makruh hisoblanib, unga ov qilinmagan. Tog‘ning boshqa qishloqlarida esa jayra ovlangan. To‘ng‘iz esa dastlab harom hisoblangan, ammo XX asr o‘rtalaridan merganlar tomonidan ovlanishga ruxsat berilgan.

Ovchilarning piri sifatida Pahlavon Ahmad Zamshiy e‘zozlangan. Aytishlaricha, u kishi o‘qqa «zam» o‘qib keyin hayvonlarni otar ekan. O‘qilgan zam buyruqqa binoan albatta nishonga tegar ekan.

Merganlar odatda mingta hayvon ovlashga ruxsat olgan. Agar ovlangan minginchi hayvon «o‘mma turish» holatiga duch kelsa – shohi yerga, tuyoqlari to‘rt oyoqda tik turadigan bo‘lsa – ovchi qurol va kiyimlarini hayvonning oldiga tashlab ketgan va hayvonni o‘sha yerda qoldirgan. Bu qoidaga rioya qilinmasa, ovning zararli bo‘lishi mumkin deb hisoblangan¹⁶.

Tog‘ qishloqlarida tarqalgan udumga ko‘ra, aholi, chorva va dehqonchilikka ziyon keltiradigan hayvonlarni ovlaganligi uchun merganlarga katta mukofotlar berilgan.

Shu tariqa, tog‘ qishloqlarida ovchilik va merganlik udumlari mahalliy e‘tiqodlar, diniy amaliyotlar va ijtimoiy tartib bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ovchilar jamiyatdagi baraka, himoya va mukofot tizimining ajralmas qismi sifatida qaralgan.

XX asr o‘rtalariga qadar tog‘ hududlarida yashovchi aholi turmush tarzi jihatidan yarim o‘troq, yarim ko‘chmanchi bo‘lib, mavsumga qarab harakat qilgan. Ko‘klam faslida yaylovlarga chiqish, kuzda esa qishloqlarga qaytish an‘anaga aylangan bo‘lib, chorvachilik faoliyati ham shu tartib asosida olib borilgan. Ko‘chishdan oldin esa albatta «kunni o‘nglash» marosimi bajarilgan.

Qishloqlarda qulay kunlarni belgilab beruvchi mahalliy munajjimlar faoliyat yuritgan. Ular yulduzlar holatiga qarab safar, ko‘chish, to‘y yoki boshqa ishlar uchun

¹⁶ Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Kampirtepa qishlog‘i, 2022 yil.

munosib vaqtni aniqlab berganlar. Yulduzning joylashuvini belgilash oson bo'lmagan, chunki uni bevosita ko'z bilan ko'rish imkoni mavjud emas edi. Shu bois yulduz holati oyning chiqish tartibiga asoslanib hisoblangan.

H. Rahmonova qayd etgan taqvim «Zuhal yulduzi» nomi bilan mashhur bo'lib, u inson taqdiri bilan bog'liq deb tasavvur qilingan. Yulduz oyini hisoblashda 24 kunlik aylanish tizimi qo'llanilgan. Yangi oyning uch kunlik ko'rinishiga qarab oyning birinchi kuni belgilangan. Masalan, oy chorshanba kuni ko'rinsa, oyning boshi dushanba deb hisoblangan. Shu asosda oy kunlari davom ettirilgan.

Yulduz har sakkiz kunda bir tomonni aylanib chiqib, oy davomida uch marta harakat qilgan. Kunlarga qarab yulduz sharq, janubi-sharq, janub, janubi-g'arb, g'arb, shimoli-g'arb, shimol va shimoli-sharq yo'nalishlarida bo'ladi deb tasavvur qilingan. 9, 19, 29 kunlari yulduz «yerda», 10, 20, 30 kunlari esa «osmonda» deb hisoblangan. Ana shu olti kun safar va ko'chish uchun eng qulay deb qaralgan.

E'tiqodga ko'ra, odamlar yulduz turgan tomonga qarshi yurmasdan, aksincha, unga orqa tomondan harakat qilishlari lozim bo'lgan. Masalan, janubga yo'l olmoqchi bo'lgan shaxs yulduzning shimol tomonda bo'lishini kutgan. Yulduzga qarab amal qilish ishning barorli bo'lishini ta'minlaydi, deb ishonilgan.

Yulduzni tekshirish uchun maxsus amal ham bajarilgan: kishi yuzini boradigan tomonga qaratgan holda qo'llarini ko'tarib, tanasini qimirlatmay ko'zi bilan o'ng yoki chap tomonga qaragan. Agar qo'l orqasi ko'rinmasa, yo'l to'g'ri hisoblangan. Aks holda safar qoldirilgan.

Agar yulduz kuni mos kelmasa, ko'chuvchi shaxs boradigan joyiga ramziy soliq sifatida uy-jihozlaridan biror buyum qoldirib ketgan. Shundan so'ng yulduz kuni to'g'ri kelmasa ham, ko'chish mumkin deb qaralgan.

Q. Hasanovdan yozib olingan mahalliy taqvim tizimi xalq orasida «tug'ol» nomi bilan ma'lum. Ushbu kalendar tog' aholisining osmon jismlariga tayanilgan vaqt hisoblash tajribasini ifodalaydi. «Tug'ol» kalendarida Ulkar (Hulkar), Tarozi, Jarqiroq va Qambar kabi burjlar asosiy mezon sifatida qabul qilingan.

Qambar burji tashqi ko'rinishi jihatidan chayonga o'xshash deb tasvirlanadi va yil davomida osmonda saqlanib turadi, deb qaraladi. Ulkar burji esa 21 iyundan 21 iyulgacha ko'rinish, to'qqizta yulduzlar turkumidan iborat ekani qayd etiladi. Tarozi burji osmondagi tarozi shakliga o'xshatilib, uchta yulduzdan tashkil topgan hamda 21 iyuldan 21 avgustga qadar namoyon bo'ladi. Jarqiroq esa yagona yorqin yulduz bo'lib, 21 avgustdan 21 sentabrgacha osmonda kuzatiladi.

Mazkur taqvimda Qambar burji bilan oyning bir-biriga yaqinlashish holati «tug'ol» deb ataladi. Bu jarayon har oy takrorlanib, o'rtacha 2,5–3 kun davom etadi.

E'tiqodga ko'ra, «tug'ol» yil davomida ma'lum tartibda siljib boradi va har oyda ikki kunga oldinlashadi.

Manbalarga ko'ra, tug'ol yanvar oyida 23 sanadan boshlanib, keyingi oylarda quyidagicha qisqarib boradi: fevralda - 21, martda - 19, aprelda - 17, mayda - 15, iyunda - 13, iyulda - 11, avgustda - 9, sentabrda - 7, oktabrda - 5, noyabrda - 3 va dekabrda - 1 sanalariga to'g'ri keladi.

Dekabr oyida tug'ol kirishi bilan qishki «to'qson» boshlanadi. Bu kun mahalliy atama bilan «ko'rtug'al» deb nomlanadi va yilning eng sovuq mavsumi boshlanishining ramziy belgisi sifatida qabul qilingan.

Shunday qilib, «tug'ol» kalendari tog' aholisining tabiat va osmon hodisalarini kuzatishga asoslangan an'anaviy vaqt hisoblash tizimini aks ettiradi. U nafaqat mavsumlarni belgilash, balki xo'jalik ishlari va kundalik hayotni tartibga solishda ham muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan.

Yuqorida keltirilgan jadval asosida ayrim kunlarda muayyan tomonlarga ko'chish yoki yo'lga chiqish ma'qul hisoblanmagan. Faqat o'ninchi kuni safar qilishga ruxsat berilgan. Mahalliy taqvim tizimi oyning chiqishi bilan boshlanib, harakat yo'nalishi oy holatiga muvofiq belgilab olingan. Agar aholi biron manzilga borishi lozim bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri emas, balki boshqa tomondan aylanib o'tib, belgilangan joyga yetib borish usuli qo'llangan.

Shuningdek, «tug'ol» kunlarida ko'chish, kelin olish yoki yirik tadbirlar o'tkazish man etilgan. Chunki e'tiqodga ko'ra, tug'ol davri xavfli bo'lib, u yashin kabi tez va kutilmagan oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin, deb qaralgan.

XULOSA (CONCLUSION)

Ko'hitangtog' qishloqlari aholisining an'anaviy xo'jalik marosimlari tabiat, mehnat va diniy-e'tiqodiy qarashlar uyg'unligida shakllangan. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va ovchilik bilan bog'liq udumlar aholining turmush tarzida muhim o'rin egallab, ishni barakali boshlash, ofatlardan saqlanish va rizq-ro'zning ziyoda bo'lishini ta'minlash maqsadini ko'zlagan. Risola olish, pirlarga e'tiqod qilish, ziyoratgohlarda marosimlar o'tkazish kabi amallar xalq dunyoqarashida mehnatni ma'naviy asoslar bilan bog'lashga xizmat qilgan.

Shuningdek, kunni o'nglash va yulduz kalendarlariga tayanish amaliyoti aholining hayotiy qarorlarida muhim mezon bo'lib, ko'chish, safar yoki xo'jalik ishlarini boshlashda yo'nalish bergan. Garchi zamonaviy hayot sharoitida ayrim urf-odatlar o'zgargan bo'lsa-da, ularning asosiy mazmuni - tabiat bilan uyg'un yashash, mehnatga ehtirom va ma'naviy barqarorlikni saqlash g'oyasi bugungi kunga qadar Ko'hitangtog' qishloqlari turmushida muayyan darajada davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Рахимов М.Р. Земледелие таджиков бассейна р. Хингоу в дореволюционный период. –Сталинабад, 1957. –С. 181-183.
2. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. –Ташкент, 1957. –С. 12.
3. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. –B. 276.
4. Турсунов С., Пардаев Т., Турсунова Н., Муртазов Б. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. Тошкент, 2015. – Б. 314.
5. Турсунов С.Н., Пардаев Т.Р., Турсунов А.С., Тоғаева М.Р. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданият тарихи. –Тошкент: Мухаррир, 2012. –Б. 200.
6. Турсунов С.Н., ва бошқалар. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданият тарихи.–Тошкент: Мухаррир, 2012. –Б. 200.
7. Турсунов С., ва бошқалар. Ўзбекистонда топонимик номлар ва уларнинг тарихи.-Б.220.
8. Fayzullayeva M. O'zbek milliy taomlari va tanovul madaniyati. –Toshkent: Tafakkur avlodi, 2021. –B.295.
9. Умаров И., Раҳмонов Ҳ., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар. –Б. 196.